

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

ADABIYOT

9

sinf

9-sinf o'quvchilari uchun darslik

Birinchi qism

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari
agentligi tomonidan tasdiqlangan

Toshkent - 2022

UO'K 821.512.133.09(075)
KBK 83.3(5O')ya72
A 29

Tuzuvchi-mualliflar:

J. Nurmuhhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov,
M. Yuldasheva, S. Inomjonova,

Mas'ul muharrir:

Q. Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Yu. Do'smatova – Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan mакtabning
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
O' Ro'ziyeva – Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Sh. Hamidova – Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Ta'lim bo'yicha xalqaro ekspert:

Mishel Gadi

9-sinf adabiyot darsligini yozishda xalqaro ya milliy adabiy ta'larning ilg'or tajribalariga tayanilgan bo'lib, adabiyotning san'at sifatidagi ahamiyatini oshirish maqsadida asarning kino, tasviriy san'at, teatr, radio talqinlari ham darslikda aks etgan. Bu orqali o'quvchilar bir asarni turfa yondashuvlar asosida o'rganadi.

Shuningdek, har bir mavzu o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi, erkin tahlil qilishi, topshiriqlar ustida kichik tadqiqot olib borishiga moslashtirilgan. Darslikda o'quvchilar ijodkorligini, tanqidiy-ijodiy fikrlashini, badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan savol-topshiriqlar aks etgan. Qolaversa, o'quvchilar badiiy asarlarni ma'lum parchalar asosida emas, balki to'liq mutolaaga mo'ljallangan qismlariga qiziqtirish va diqqatni oshirish maqsadida "Xatcho'p" rukni ishlab chiqilgan.

Darslik tuzilish jihatdan ikki qismdan: birinchi qism I – II chorak, ikkinchi qism III – IV chorak mavzularidan tashkil topgan.

Barcha huquqlar himoya qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligining yozma ruxsatsiz ko'paytirish, tarqatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqalanadi.

MUNDARIJA



- | | |
|-----|---|
| 7 | CHO'LTON HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR |
| 19 | JEK LONDON HAYOTI VA IJODI. "HAYOTGA MUHABBAT" HIKOYASI |
| 36 | IJODIY LABORATORIYA |
| 39 | OYBEK HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR |
| 51 | ASQAD MUXTOR HAYOTI VA IJODI. "CHINOR" ROMANIDAN PARCHA |
| 77 | SHAVKAT RAHMON HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR |
| 89 | NAZARIY MA'LUMOT. LIRIKA |
| 91 | RICHARD BAX HAYOTI VA IJODI. "OQCHORLOQ JONATAN LIVINGSTON" |
| 107 | ODIL YOQUBOV HAYOTI VA IJODI. "ULUG'BEK XAZINASI" |
| 131 | SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI. "HIJRON KUNLARIDA" |
| 151 | USMON AZIM HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR. "G'OZ" HIKOYASI |
| 173 | O'TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI. "IKKI ESHIK ORASI" |
| 187 | VALENTIN RASPUTIN HAYOTI VA IJODI. "FRANSUZ TILI SABOQLARI" |
| 201 | AHMAD A'ZAM HAYOTI VA IJODI. "SOYASINI YO'QOTGAN ODAM" |
| 217 | SO'Z JILOSI |

Darslikdan qanday foydalanamiz ?

CHO'LTON

“...”

Asarga yo'naltiruvchi mavzu.

Asarga yo'naltiruvchi mavzu.

O'rganilayotgan ijodkorga, asarga e'tiroflar yoki iqtiboslar bilan tanishasiz.

Mavzuni o'rganish jarayonida Siz o'zlashtiradigan bilimlar.

"Mutolaadan oldin" – asar mutolaasiga kirishishdan avval asar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishasiz.

“...”

“QR-kod” – o'rganilayotgan yoki tavsiya etilayotgan asarning matn, audio, video formatidagi variantlarining internetdagi manbasi.

“QR-kod” – o'rganilayotgan yoki tavsiya etilayotgan asarning matn, audio, video formatidagi variantlarining internetdagi manbasi.

Ijodkor haqida

“...”

“Ijodkor haqida” – ijodkorning hayoti, faoliyati va asarlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Ijodkor haqida

“...”

“Ijodkor haqida” – ijodkorning hayoti, faoliyati va asarlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Ijodiy laboratoriya

“...”

“Ijodiy laboratoriya” da badiiy ijodning nozik sirlari bilan tanishib, asarlarni talqin va tadqiq qilib borasiz. Shuningdek, o'z ijodiy ishlaringizda bu tajribalar ni qo'llashni o'rganasiz.

“Ijodiy laboratoriya” da badiiy ijodning nozik sirlari bilan tanishib, asarlarni talqin va tadqiq qilib borasiz. Shuningdek, o'z ijodiy ishlaringizda bu tajribalar ni qo'llashni o'rganasiz.

Adabiy laboratoriya

“...”

Adabiy laboratoriya – muayyan adabiy mavzular doirasida olib boriladigan ijodiy-ijtimoiy tadqiqot va loyihalari. Bunda Siz o'z g'oyalaringiz asosida yangi ijodiy mahsulot yaratasisiz.

"Asar matni ustida ishlash" – o'rganilayotgan asarning darslikda berilmagan va uuda mustaqil o'qishga qaratilgan qismlari yuzasidan lug'at, savol va topshiriojar.

INTERACTION WITH...	
1. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
2. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
3. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
4. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
5. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
6. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
7. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
8. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
9. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?
10. Who makes the rules? Who enforces them? Who is responsible for their implementation?	What does the teacher do when students break the rules?

"Mutolaadan so'ng" –
o'rgani layotgan asar
bo'yicha umumiy
yakunlash va xulosalash
yuzasidan savol va
topshiriqlar.

"Asar talqinlari"
- o'rganilayotgan
asarning turli talqinlari
(radiodrama, audio, kino,
teatr, tasviriyl san'at) bilan
ishlashni o'rganasiz.

Mesopotamia's cities	Indus Valley's cities
• Mesopotamian cities were built along rivers.	• Indus Valley cities were built along rivers.
• Mesopotamian cities had temples.	• Indus Valley cities had temples.
• Mesopotamian cities had palaces.	• Indus Valley cities had palaces.

"Mustaqil mutolaa uchun" –
o'rganilayotgan asardan
tashqari qo'shimcha asarlar
bilan ishlash, tadqiq qilish,
tahlil qilish rukni.

“A great company...driving forward, leading by example, showing the way, making things better for everyone else.” —John Deere CEO Tom Coughlin, after the company’s 2012 earnings report. “We’re continuing to make significant investments in our business, and we’re continuing to invest in people, technology, and facilities,” he said.

“We’re looking forward to continuing to work with our customers every day, helping them realize their potential and contribute to our success. And we’re going to continue to invest in our people, our facilities, our equipment, our products, and our services to help our customers succeed.” —John Deere Chairman and CEO Tom Coughlin, after the company’s 2013 earnings report.

“We have a strong culture of innovation. We’re always looking for opportunities to improve our products and services. We’re always looking for ways to make our operations more efficient, more effective, more sustainable. We’re always looking for ways to engage our employees and our customers in our mission to help them succeed.” —John Deere CEO Tom Coughlin, after the company’s 2014 earnings report.

“Our focus is on innovation, on improving our products and services, on making our operations more efficient, more effective, more sustainable. We’re always looking for ways to engage our employees and our customers in our mission to help them succeed.” —John Deere CEO Tom Coughlin, after the company’s 2015 earnings report.

“Our focus is on innovation, on improving our products and services, on making our operations more efficient, more effective, more sustainable. We’re always looking for ways to engage our employees and our customers in our mission to help them succeed.” —John Deere CEO Tom Coughlin, after the company’s 2016 earnings report.

"Xatcho'p" – o'rganilayotgan asarning darslikda berilmagan, mustaqil o'qishga qaratilgan qismlardan iqtiboslar (anonslar).

"Nazariy ma'lumot" – o'rganishingiz lozim bo'lgan adabiyot qoidalari haqida bilib olasiz.



Adabiyot – fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha...

... Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdag'i voqealar, hodisalar, fikr va tupg'ularni umumiylashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishadi...

Oybek




CHO'LPON

HURRIYAT KUYCHISI

Mavzuni o'r ganish jarayonida:

- shoir she'rlaridagi mavzu va g'oyalarni aniqlaymiz;
- she'r badiiyatini tahlil qilamiz;
- she'rlarning ifoda uslubi, shoirning so'ztanlash mahoratini tadqiq etamiz;
- obraz haqida tushunchaga ega bo'lamiz.




“

E'tirof

Cho'lpon adabiyotning yangi g'oyaviy mazmuni uchungina emas, ayni chog'da uning yuksak badiiyati uchun ham kurashganida, albatta, o'sha davrdagi adabiy jarayonning xususiyatiga tayangan. Ma'lumki, jadidlar XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan yangi mazmundagi adabiyot yaratdilar, ammo turli sabablarga ko'ra bu adabiyot hamma vaqt ham yuksak badiiyat bilan omixta bo'lavermas edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Cho'lpon adabiyotni san'atga yaqinlashtirish imkonlarini izladi va bunga erishishning eng to'g'ri yo'lli haqqoniylilik, degan xulosaga keldi.

Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston Qahramoni.



IJODKOR HAQIDA...

Hayoti va faoliyati

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li oilasida tug'ilgan.

Uning otasi zamonasining o'qimishli kishilaridan hisoblanar, o'zi ham she'rlar yozib turardi. Cho'lponning onasi Oysha aya xalq qo'shiqlari va ertaklarini yaxshi bilgani uchun o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Abdulhamid avval eski mакtabda o'qib, keyinchalik Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil oladi. Rus-tuzem maktabida ham o'qiydi. Bo'la-jak shoir muntazam tarzda shug'ullanib, turk, fors, arab, rus tillarini puxta o'zlashtirdi.

Cho'lpon Fitrat boshchiligidagi "*Chig'atoy gurungi*" tashkilotining ham faol a'zosi edi. Qolaversa, "*Inqilob*" jurnali, "*Buxoro axbori*", "*Darxon*" gazetalarida faoliyat yuritgan. Cho'lpon ham milliy professional teatrni shakllantirish uchun yigirma to'rt nafar iste'dodli o'zbek yoshlari qatorida Moskvaga o'qishga yuboriladi. Ammo 1926-yili Toshkentga qaytgan shoir sho'r o hukumati tomonidan qattiq siquvga olinib, e'lon qilingan asarlari matbuotda tanqid qilinadi.

Lekin Cho'lpon ijtimoiy va siyosiy faolligini qo'ymaydi, natijada adib davrining bir gruh asl farzandlari qatori 1938-yilning 4-oktabrida otiladi.

Mustaqillik yillarda Cho'lpon ijodini o'rganish taraqqiy etdi. Bu borada Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Dilmurod Quronov kabi adabiyotshunoslar jiddiy qadamlar qo'yishdi. Xususan, "*Cho'lponni anglash baxti*" (O.Sharafiddinov), "*Cho'lpon ma'rifiy romani*" (N. Karimov), "*Cho'lpon nasri poetikasi*" (D. Quronov) kabi muhim tadqiqotlar yaratildi.

Cho'lpon istiqlol yillarda *Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti* hamda "*Mustaqillik*" ordeni bilan taqdirlangan.

Asarlari

She'riy to'plamlari: "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" kabi.

Hikoyalari: "Qurban ni jaholat", "Do'xtir Mahammadiyor", "Novvoy qiz", "Qor qo'ynida lola".

Publitsistik maqolalari va ocherklari: "Adabiyot nadir?", "Muhtaram yozuvchilarimizg'a", "Yo'lda bir kecha", "Sharq poyezdi keldi", "Sharq uyg'ongan", "Quturgan mustam-lakachilar", "Yo'l esdaligi".

Dramalari: "Yorqinoy", "Xalil farang", "Cho'rining isyon'i", "Yana uylanaman", "O'rtoq Qarshiboyev", "Hujum".

Romani: "Kecha va kunduz" roman-dilogiyasi.

Tavsiya

Cho'lpon hayoti va ijodi, fojiali taqdiri aks ettirilgan O'zbekiston xalq shoiri, dramaturg Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" sahna asarini quyidagi havola orqali tomosha qiling.

Manba: MTRK oltin xazinasidan.





MUTOLAADAN OLDIN...

Cho'lpon "Ulug' hindiy" maqolasida "*Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir*" deb yozishi orqali nafaqat o'zbek adabiyotida, balki millat hayotida ham yangilikka ehtiyoj borligini XX asr boshidayoq his qilganini sezishimiz mumkin va mingyllik an'analarga ega qadimiy o'zbek she'riyatida Cho'lpon o'z yo'lini izladi hamda betakror samimiyligi, jozi-badorligi, ta'sirchanligi, tuyg'ularning ranginligi bilan o'zgalarnikidan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi.

Bugungi o'zbek adabiy tili ko'p jihatdan Cho'lpon she'rлari ta'sirida yanada takomillashdi.

Sizlar bilan bir necha dars davomida tanishadigan:

"Ko'ngil";

"Buzilgan o'lkaga";


"Binafsha";

"Yong'in";

"Sirlardan";

"Go'zal" kabi she'rлari orqali ijodkor qidirgan yangiliklarni, adabiyot oldiga qo'ygan savollariga javoblarni izlaymiz.

Ushbu she'rлardagi ramziy timsol, nozik ishoralarni birgalikda ilg'ashga harakat qilamiz.



"Akademnashr" tomonidan
2021-yilda chop etilgan Cho'lpon
she'rларининг сяланниси.

Bilib oling!

Cho'lpon ijodini 1913–1914-yillardan boshlagan bo'lib, "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik", "Cho'lpon" taxallusi bilan ijod qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, unga Cho'lpon – "Tong yulduzi" taxallusini Munavvarqori Abdurashidxonov bergen.

Tavsiya

Cho'lpon qalamiga mansub she'rлar, dramalar va tarjimalarni o'qish uchun havola.

Manba: Cho'lpon. She'rлar, dramalar, tarjimalar. 3 jildlik to'plamning 1-jildi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1994-yil.



SHE'RLAR

KO'NGIL

*She'r 1922-yil 7-avgust kuni Toshkentda yozilgan bo'lib,
"Tong sirlari" (1926-yil) to'plamiga kiritilgan.*

*Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?*

*Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?*

*Tiriksan, o'limgansan,
Sen-da odam, Sen-da insosen,
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsen!*



O'ylab ko'ring!

She'r yozilgan vaqtga e'tibor bering. Shoир shu yillarda "Kishan", "Qo'zg'olish", "Aldanish" kabi she'rlarini ham yozgan edi.

Aynan nega shunday ruhdagi she'rlar yozgan bo'lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslang.

Savol va topshiriqlar

- Shoir nima uchun ko'ngilga murojaat qilish bilan she'rni boshlagan bo'lishi mumkin?
- Ikkinci bandda zo'ravonlikka nisbatan isyon ohanglari misrama-misra kuchayganiga e'tibor qiling va buning sababini izohlang.
- So'nggi banddag'i "Sen-da odam, sen-da insosen" misrasi orqali shoир nimaga ishora, da'vat qilyapti?
- Shoir she'nda odamiylik, insoniylik o'lchovi sifatida nimani keltirgan? Javobingizni asoslang.

Topshiriq

Shoir she'nda 5 savol bilan murojaat qiladi. Nega aynan shunday savollarni bergen bo'lishi mumkin? Javoblaringizni quyidagi jadvalga joylashtiring:

She'rdagi savollar	Javoblar	Asoslar
<i>Nega kishanlar birla do'stlashding?</i>		
<i>Nechun sen muncha sustlashding?</i>		
<i>Tubanlik mangu ketmasmi?</i>		
<i>Kishanlar parchalanmasmi?</i>		
<i>Qilichlar endi sinmasmi?</i>		